XALQ DEPUTATLARI BESHARIQ TUMANI KENGASHI
Q A R O R I

Beshariq tumani, Oltin vodiy ko‘chasi 160-uy tel (73) 612-20-08

2023 - yil 29 - dekabr VI-97-146-11-153-K/23 Beshariq tumani hokimligi

Farg‘ona viloyati Beshariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27-, 99-moddalari, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1160-sonli va Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 03/01-02-01-18/4605-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashi

QAROR QILADI

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Beshariq tuman mahalliy budjetining 2024-yilgi daromadlari 96 mlrd. 965,0 mln.so‘m va xarajatlari 246 mlrd. 105,0 mln.so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar 149,0 mlrd. 140,0 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonun bilan quyidagilar tegishincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Respublika budjetidan, viloyatlarning viloyat budjetlaridan va Toshkent shahrining

shahar budjetidan, tumanlar va shaharlar budjetlaridan moliyalashtirilishi:

Soliq qo‘mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari;

Quyidagi mahalliy budjetdan moliyalashtirib kelinayotgan xarajatlar:

kam ta’minlangan oilalarga bolalar nafaqalarini va moddiy yordamlarni to‘lash;

O‘zini-o‘zi boshqarish organlari (mahallalar)ni nodavlat-notijorat tashkilot va budjetdan mablag‘ oluvchi sifatida saqlash xarajatlari Respublika budjetidan moliyalashtirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Beshariq tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

Beshariq tumanining tuman budjetidan 2024-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga;

Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati G`aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

Tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumanlar mahalliy budjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga, jismoniy shaxslar bo‘yicha

(dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga hamda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutloq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. Tumanning tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2024-yil uchun 2 mlrd. 182.4 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda,

Tuman mahalliy budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

Tuman budjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin;

mahalliy budjetlarni ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarning zaxira jamg‘armalari miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi nazarda tutilsin.

9. Qonun bilan xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan, mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda:

a) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar:

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda davlat bojlari (patent boji va

litsenziya berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

ayrim tovarlarni chakana savdosiga beriladigan huquq uchun undiriladigan yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat budjeti daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulk, mahalliy davlat hokimiyati organlarining aktivlari bo‘yicha ajratmalar va dividentlar;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini xususiylashtirishdan tushgan tushumlar;

tashqi reklama obyektlarini (konstruksiyalarini) joylashtirish huquqini sotishdan tushgan tushumlar;

boshqa tushumlar (ushbu bandning “v” va “g” qismlarida nazarda tutilgan daromadlardan tashqari barcha daromadlar, shu jumladan, budjet tashkilotlari asosiy vositalari sotilishidan tuman va shahar budjetlariga tushumlar) tumanning tuman mahalliy budjetiga to‘lig‘icha o‘tkazilishi;

b) Mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo hamda tamaki uchun aktsiz solig‘idan tushumlar 2023-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib berilishi;

v) Quyidagi soliq turlari:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

aylanmadan soliq;

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar hamda boshqa tushumlar *(faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)* shahar va tumanlar budjetiga

to‘liqligicha o‘tkazib berilishi;

g) quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq turidan tushumlarning barcha shahar va tumanlarda 50 foizi;

qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalarning viloyat budjetiga 70 foizi tuman mahalliy budjetiga 30 foizi;

yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasi qilishdagi aktsiz solig‘idan tushumlarning 20 foizi;

jismoniy shaxslardan undiriladigan daromad solig‘idan tushumlarning (yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) 50 foizi;

yuridik shaxslar yer va mol-mulk solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik solig‘idan tushumlarning 50 foizi;

yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan tushumlarning 50 foizi;

agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat mahalliy budjetiga o‘tkaziladi.

10. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Samatov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Turonov) 2024-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

11. Belgilansinki:

Hokimlik, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar tomonidan 2024-yilda budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratilsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (A.Turonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

13. Majburiy ijro byurosi Beshariq tumani bo‘limi (S.Qo‘shmaqov), tuman soliq inspeksiyasi (A.Turonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

14. Irrigatsiya bo‘limi (Z.Maxammadiyev) va tuman soliq inspeksiyasi (A.Turonov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

15. Tuman ichki ishlar bo‘limi (R.Maxsudov), Adliya bo‘limi (B.Abdujabborov) tuman budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

16. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish

masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (T.Samatov), tegishli bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari:

Budjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishli ravishda hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarning budjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga kiritib borilishini ta’minlasin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2023-yil 7-noyabrdagi 02-1160-sonli xati bilan yuborilgan xulosadan kelib chiqib:

Sog‘liqni saqlash bo‘limi (L.Jo‘rayev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PQ-197-son qarorining 5-ilovasi bilan tasdiqlangan sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish dasturini amalga oshirish uchun ajratilayotgan budjet mablag‘lari hisobidan kompyuter texnikalari sotib olish uchun xarajatlar smetasida mablag‘ nazarda tutish;

Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Barataliyeva) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-maydagi PF-79-son Farmoniga muvofiq, 2024-yil 1-yanvardan boshlab markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati xodimlarining bazaviy ta'rif stavka miqdorlari 1,5 baravarga oshirilganligi sababli shtatlar jadvali va xarajatlar smetasini tuzishda ajratilgan budjet mablag‘lari doirasida zarur mablag‘larni yo‘naltirishni inobatga olinishini;

Irrigatsiya bo‘limi (Z.Maxammadiyev) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-iyundagi PF-101-sonli Farmoniga muvofiq, suv xo‘jaligi tashkilotlarini moliyalashtirish darajasi o‘zgarganligini inobatga olgan holda xarajatlar smetasining shakllantirilishini ta’minlash;

Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov) soliq inspeksiyasi (A.Turonov) bilan birgalikda budjet oldidagi soliq va majburiy to‘lovlar bo‘yicha boqimanda qarzdorliklarni undirish va budjet daromadlarini oshirish hamda xarajatlarni maqbullashtirish hisobiga Respublika budjetidan ajratilgan uzoq muddatli ssudalarni qaytarish bo‘yicha Xalq deputatlari viloyat kengashiga taklif kiritilishini ta’minlasin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan yig‘ilish (15.11.2023-y, 36-son) bayonining 4.3-bandiga asosan, 2024-yildan boshlab mahalliy budjetlar va rezident yuridik shaxslarga budjet ssudalari va budjet hisobidan qoplanadigan kredit mablag‘larini ajratishni cheklash, zarur hollarda, ssudalarni mahalliy budjetlarga xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining qarorlari asosida ajratish amaliyoti joriy etilsin.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-dekabrdagi “Mahalla budjet” tizimini joriy etish orqali mahallalarning moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-458-sonli qaroriga asosan, 2024-yildan barcha hududlarda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va yer solig‘i uchun belgilanadigan prognoz ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib 10 foizini «Mahalla budjeti» jamg‘armalarini shakllantirishga yo‘naltirish ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

20. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Samatov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov), Soliq inspeksiyasi (A.Turonov) Beshariq tumanining 2024-yilgi mahalliy budjeti loyihasida belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

21. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Samatov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov) bilan birgalikda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi viloyat komissiyasi ishini samarali tashkil etib borsin hamda tuman mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari, jumladan, daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismidan foydalanish yo‘nalishlari bo‘yicha har chorak yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot kiritilishini ta’minlasin.

22. Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov) budjetdan ajratilgan mablag‘larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

23. Tuman hokimligi, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar har chorakda budjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash hamda budjet shakllanishida va ijrosida jamoatchilik ishtirokini faollashtirish yuzasidan hududlarda muhokamalar va tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish choralarini ko‘rsin.

24. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 15-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning jamlanma xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, jamlanma daromadlar va xarajatlar, daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlar to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

davriy jamlanma moliyaviy hisobotlar to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

Mahalliy hokimlik, mas’ul bo‘lim va tashkilotlar tomonidan 2024-yil uchun belgilangan budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlanishi, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli bo‘yicha deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

Bunda amalga oshirayotgan ishlarini monitoring qilgan holda o‘rganib borish, natijalarini mahalliy Kengashlarning tegishli doimiy komissiyalari yig‘ilishlari hamda Kengash sessiyalarida mahokama qilish, soha mas’ullari va tuman hokimining mahalliy Kengash sessiyalarida axborotlarni tinglab borish tavsiya etilsin.

25. Tuman hokimligi Axborot xizmati (D.Raxmonova), soliq inspeksiyasi

(A.Turonov), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (H.Isroilov) bilan birgalikda tuman hokimlik muassisligidagi “Beshariq tongi” gazetasida Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

26. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

27. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

28. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (B.Abdusaudov) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari T.Samatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
1-ilova

Beshariq tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari

ming.so‘m

№	Jami jaromadlar	Beshariq tumani
I.	**Tartibga soluvchi daromadlar**	**37 581 500**
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*37 581 500*
II.	**Biriktirilgan daromadlar**	**59 383 500**
	To‘liq tuman mahalliy budjetiga	**36 796 000**
1	Korxonalar aylanmasidan soliq	10 330 000
2	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 524 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 424 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	16 312 000
5	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	206 000
	Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadigan daromadlar	**22 587 500**
1	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq	*4 938 500*
2	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizelь yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aktsiz solig‘i	*3 230 000*
3	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*2 547 500*
4	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	*6 289 500*
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*3 989 000*
7	Jarimalar	*1 593 000*
III.	**Mahalliy budjet prognozi**	**96 965 000**
IV.	**Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**149 139 989**
VI.	**shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar**	41 115 542

Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
2-ilova

Beshariq tuman mahalliy budjetidan 2024-yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratilgan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘m

T/r	Beshariq tuman mahalliy byudjetidan mablag‘ oluvchi hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Summa
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi**	**45 221 111,6**
	shundan	
	Maktabgacha ta’lim muassasalari	29 650 336,0
	Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan umumta’lim maktablari	15 570 775,6
2	**Tibbiyot birlashmasi**	**110 926 277,0**
3	**Madaniyat bo‘limi**	**4 717 116,4**
	shundan	
	Madaniyat bo‘limi xarajatlari	1 680 591,0
	Bolalar musiqa va san’at maktabi	3 036 525,4
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**13 089 212,0**
	shundan	
	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limini saqlash xarajatlari	5 736 498,0
	Bolalar va o‘smirlar sport maktablari	7 352 714,0
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 224 209,0**
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limi**	**4 635 017,0**
	shundan	

	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 039 373,0
	Xayvon kasallilari tashxisi va oziq-ovqat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazi saqlash xarajatlari	2 247 286,0
	Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari	348 358,0
7	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari**	**1 729 214,0**
8	**Davlat soliq inspektsiyasi**	**5 006 786,0**
9	**Xokimiyat**	**58 556 046,0**
	shundan	
	Xokimliklarni saqlash xarajatlari	2 777 031,0
	Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	151 470,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	2 182 401,0
	Fuqarolarning tashabbusli jamg‘armasi	25 682 520,0
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	227 190,0
	Hokim yordamchilarini saqlash xarajatlari	6 264 134,0
	Mahalla byudjeti	1 649 499,0
	Oila va xotin qizlar bo‘limi	3 869 159,0
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga "dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam pvketi"	18 400,0
	Hokimlik ijtimoiy ko‘nikma markazi bo‘limi	149 054,0
	Tuman hududidagi tuman ko‘chalari va yo‘llarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash xarajatlari	4 000 000,0
	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	11 585 188,0
	Jami	**246 104 989,0**

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha

ajratma me’yorlari

Foiz hisobida

T/R	Shahar va tumanlar nomi	Korxonalar aylanmasidan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig‘i	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aktsiz soliq	Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jarimalar	Boshqa tushumlar (Faqat 3 450 950 daromad kodi bo‘yicha)*
1	Beshariq tumani	100	50	100	0	20	100	100	50	100	50	50	50	30	100

** 3 450 950 daromad kodidan tashqari barcha boshqa tushumlarni hisobga oluvchi daromad kodlari bo‘yicha kelib tushgan tushumlar viloyat mahalliy budjetiga to‘liq miqdorda yo‘naltiriladi.*

Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
4-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2024-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

№	Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami	Shundan, aksiz solig‘i tushumlaridan ajratiladigan mablag‘lar
	JAMI	**149 139 989**	**41 115 542**
1	Beshariq tumani	149 139 989	41 115 542

Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
5-ilova

Shahar va tumanlar mahalliy budjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

№	Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI		**96 965 000,0**	**246 104 989,0**
1	Beshariq tumani	96 965 000,0	246 104 989,0

Xalq deputatlari Beshariq tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-yilda viloyat, shahar va tumanlar mahalliy budjetlarida aylanma kassa mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**910 000,0**
1	Beshariq tumani	910 000,0

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (ming.so‘m)
1	Do‘stlik MFY	1,1	36630,00
2	SobirtepaMFY	1,1	36630,00
3	Andarxon *(Chinobod)* MFY	1,1	36630,00
4	Kapayangi MFY	1,1	36630,00
5	Qiyali MFY	1,05	34965,00
6	Bo‘ston MFY	1,1	36630,00
7	Yakkatut MFY	1,1	36630,00
8	Ko‘rkam *(Qorabo‘yin)* MFY	1,1	36630,00
9	Beshkapa MFY	1,1	36630,00
10	Eshon MFY	1,1	36630,00
11	Ariqboshi MFY	1,1	36630,00
12	Tovul MFY	1,1	36630,00
13	Qoraqo‘yli MFY	1,1	36630,00
14	Yuqori Tovul MFY	1,1	36630,00
15	Uzun MFY	1,1	36630,00
16	Iftixor MFY	1,1	36630,00
17	Quyi Tovul MFY	1,1	36630,00
18	Yangiqo‘rg‘on MFY	1,1	36630,00
19	Yangi Qashqar MFY	1,1	36630,00
20	Abdurazzoq ota MFY	1,1	36630,00
21	Abduvay MFY	1,05	34965,00
22	Vorux-Dasht MFY	1,05	34965,00
23	Toshariq MFY	1,14	37962,00
24	Namuna MFY	1,1	36630,00
25	Soylabi MFY	1,1	36630,00
26	Qum MFY	1,1	36630,00
27	Pastki Yangiqo‘rg‘on MFY	1,1	36630,00
28	Nabi MFY	1,1	36630,00
29	Ma’rifat *(Qorayantoq)* MFY	1,1	36630,00
30	Rapqon MFY	1,1	36630,00
31	Yangi Rapqon MFY	1,1	36630,00
32	Dehqonobod MFY	1,1	36630,00
33	Oltinko‘l *(Shaytonko‘l)* MFY	1,1	36630,00
34	Qo‘rg‘oncha MFY	1,1	36630,00

35	Telov MFY	1,1	36630,00
36	Yangi Hayot MFY	1,1	36630,00
37	Navbahor MFY	1,1	36630,00
38	Shodlikobod MFY	1,1	36630,00
39	Vatan MFY	1,1	36630,00
40	Baxmal MFY	1,1	36630,00
41	Kulalobod KFY	1,1	36630,00
42	Gambay MFY	1,1	36630,00
43	Yangi MFY	1,1	36630,00
44	Shoberdi MFY	1,1	36630,00
45	Qiyat-Sartol KFY	1,1	36630,00
46	Beshariq MFY	1,1	36630,00
47	Dehqonto‘da MFY	1,1	36630,00
48	Chorbog‘to‘rong‘i MFY	1,1	36630,00
49	Xalqlar Do‘stligi MFY	1,14	37962,00
50	Obod MFY	1,14	37962,00
51	Boy MFY	1,14	37962,00
52	Fayziobod MFY	1,14	37962,00
53	Yuqori Zarqaynar MFY	1,1	36630,00
54	O`ttizzombor MFY	1,1	36630,00
55	Nurafshon *(Oqtovuq)* MFY	1,1	36630,00
56	Quyi Zarqaynar MFY	1,1	36630,00
57	Chimboy MFY	1,1	36630,00
58	Beshsari *(Sho‘r)* MFY	1,1	36630,00
59	Novkat MFY	1,1	36630,00
60	Hamid Olimjon MFY	1,14	37962,00
61	Chorbog‘ MFY	1,14	37962,00
62	Buloqboshi MFY	1,14	37962,00

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024 yil uchun (so‘m)
1	Do‘stlik MFY	1,08	378,0
2	SobirtepaMFY	1,08	378,0
3	Andarxon *(Chinobod)* MFY	1,08	378,0
4	Kapayangi MFY	1,08	378,0
5	Qiyali MFY	1,08	378,0
6	Bo‘ston MFY	1,08	378,0
7	Yakkatut MFY	1,08	378,0
8	Ko‘rkam *(Qorabo‘yin)* MFY	1,08	378,0
9	Beshkapa MFY	1,08	378,0
10	Eshon MFY	1,08	378,0
11	Ariqboshi MFY	1,08	378,0
12	Tovul MFY	1,08	378,0
13	Qoraqo‘yli MFY	1,08	378,0
14	Yuqori Tovul MFY	1,08	378,0
15	Uzun MFY	1,08	378,0
16	Iftixor MFY	1,08	378,0
17	Quyi Tovul MFY	1,08	378,0
18	Yangiqo‘rg‘on MFY	1,08	378,0
19	Yangi Qashqar MFY	1,08	378,0
20	Abdurazzoq ota MFY	1,08	378,0
21	Abduvay MFY	1,03	361,0
22	Vorux-Dasht MFY	1,03	361,0
23	Toshariq MFY	1,13	396,0
24	Namuna MFY	1,08	378,0
25	Soylabi MFY	1,08	378,0
26	Qum MFY	1,08	378,0
27	Pastki Yangiqo‘rg‘on MFY	1,08	378,0
28	Nabi MFY	1,08	378,0
29	Ma’rifat *(Qorayantoq)* MFY	1,08	378,0
30	Rapqon MFY	1,08	378,0
31	Yangi Rapqon MFY	1,08	378,0
32	Dehqonobod MFY	1,08	378,0
33	Oltinko‘l *(Shaytonko‘l)* MFY	1,08	378,0

34	Qo‘rg‘oncha MFY	1,08	378,0
35	Telov MFY	1,08	378,0
36	Yangi Hayot MFY	1,08	378,0
37	Navbahor MFY	1,08	378,0
38	Shodlikobod MFY	1,08	378,0
39	Vatan MFY	1,08	378,0
40	Baxmal MFY	1,08	378,0
41	Kulalobod KFY	1,08	378,0
42	Gambay MFY	1,08	378,0
43	Yangi MFY	1,08	378,0
44	Shoberdi MFY	1,08	378,0
45	Qiyat-Sartol KFY	1,08	378,0
46	Beshariq MFY	1,08	378,0
47	Dehqonto‘da MFY	1,08	378,0
48	Chorbog‘to‘rong‘i MFY	1,08	378,0
49	Xalqlar Do‘stligi MFY	1,08	378,0
50	Obod MFY	1,13	396,0
51	Boy MFY	1,13	396,0
52	Fayziobod MFY	1,13	396,0
53	Yuqori Zarqaynar MFY	1,08	378,0
54	O`ttizzombor MFY	1,08	378,0
55	Nurafshon *(Oqtovuq)* MFY	1,08	378,0
56	Quyi Zarqaynar MFY	1,08	378,0
57	Chimboy MFY	1,08	378,0
58	Beshsari *(Sho‘r)* MFY	1,08	378,0
59	Novkat MFY	1,08	378,0
60	Hamid Olimjon MFY	1,13	396,0
61	Chorbog‘ MFY	1,13	396,0
62	Buloqboshi MFY	1,13	396,0

Izox: Shaharlar va tumanlar Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab, 0,7-3,0 kamaytiruvchi va ko‘paytiruvchi koeffitsentlarni belgilash huquqiga ega.

Xalq deputatlari Beshariq tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-97-146-11-153-K/23-son qaroriga
9-ilova

Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish o‘tkazuvchi organlarda ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan binolar va inshootlarning 1 kv.m. uchun mutlaq miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0,5 dan)	Minimal miqdor 2024-yil uchun (ming.so‘m)
1	Beshariq tumani	0,85	1 020,0